

ISTE'MOL KAYFIYATI SHARHI

2025-YIL III CHORAK


Qisqa tavsif

Dekabr-2025


2025-yilning III choragida aholining iste'mol kayfiyatida ijobiy tendensiyalar saqlanib qoldi va umumiy barqarorlik davom etdi. Bu daromadlar bo'yicha kutilmalarning yaxshilanishi, xarajatlar rejalari barqarorligi, jamg'arishga bo'lgan moyillikning oshishi hamda kreditga bo'lgan talabning biroz pasayishi bilan tavsiflandi.

Daromadlar oshishi kutilmalari yaxshilandi. Respondentlarning 67 foizi keyingi 12 oyda daromadlari oshishini bildirdi (o'tgan chorakka nisbatan 1,5 foiz bandga oshgan). Daromadlar o'sishi bo'yicha kutilmalar asosan 3–5 mln so'm, 7–10 mln so'm hamda 20 mln so'mdan yuqori daromadga ega respondentlar orasida yuqoriroq shakllangan.

1-rasm. Daromad subindeksi (band)



2-rasm. Daromad subindeksi o'zgarishi
(o'tgan chorakka nisbatan, foiz band)



Bunda qatnashuvchilar tomonidan asosiy daromad manbai sifatida rasmiy oylik ish haqi (62 foiz) ko'rsatildi. Savdo, axborot texnologiyalari va OAV, kommunal va maishiy xizmatlar, turizm hamda ta'lim sohalarida faoliyat yurituvchi respondentlar orasida daromadlar oshishini kutayotganlar ulushi yuqori bo'ldi.

ISTE'MOL KAYFIYATI SHARHI

Xarajatlar bo'yicha kayfiyati o'tgan chorak darajasida saqlanib qoldi. Respondentlarning 77 foizi kelgusi oylarda xarajatlari oshishini bildirdi (o'tgan chorak darajasida o'zgarishsiz). Daromad guruhlari kesimida asosiy xarajat yo'nalishlari sifatida ta'lim, uy-joy ta'mirlash va saqlash, sog'liqni saqlash hamda avtomobil va maishiy ehtiyojlar bilan bog'liq xarajatlar ko'rsatildi.

3-rasm. Xarajatlar bo'yicha kutilmalar, aholi daromadlari kesimida (ulushi, foizda)

Kelgusi xarajatlari	ta'lim	uy-joy ta'miri	boshqa-lar	avtomobil	davola-nish	to'y	uy-joy xaridi	xarid qilmay-miz	maishiy texnika	sayohat	mebel-lar xaridi	oilaviy bayram	elek-tron qurilma
2 mln.so'mgacha	22	27	10	6	12	9	6	12	5	6	6	4	2
2-3 mln.so'm	27	23	16	8	10	9	5	10	6	4	5	4	2
3-5 mln.so'm	22	24	14	10	14	9	9	10	6	7	7	5	3
5-7 mln.so'm	20	23	12	9	12	10	6	10	7	7	6	6	3
7-10 mln.so'm	21	24	14	11	11	7	9	10	9	6	9	6	3
10-15 mln.so'm	22	23	18	16	8	9	11	9	9	8	9	8	4
15-20 mln.so'm	26	22	20	12	14	12	14	8	10	10	10	3	3
20-30 mln.so'm	24	23	19	14	8	18	14	5	9	15	7	8	4
30 mln.so'mdan yuqori	21	13	3	18	8	5	11	8	13	11	11	3	0

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Xarajatlar ustuvorligi yosh guruhlari bo'yicha farqlangan: yoshlar asosan ta'lim va uy-joy ta'miriga, o'rta yoshdagilar uy-joy ta'miri va sog'liqni saqlashga, yoshi katta respondentlar esa sog'liqni saqlash va maishiy xarajatlarga ko'proq e'tibor qaratgan.

4-rasm. Yosh kesimida xarajatlar tarkibi (ulushi, foizda)


Yosh chegarasi	uy-joy ta'miri	ta'lim	davola-nish	boshqa-lar	xarid qilma-dik	to'y	maishiy texnika	oilaviy bayram	avtomobil	mebel-lar xaridi	uy-joy xaridi	sayohat	elek-tron qurilma
18 yoshdan kichik	23	34	9	13	9	6	6	8	6	6	4	5	1
18-30 yoshgacha	24	28	15	16	10	10	9	8	9	6	6	5	5
31-40 yoshgacha	28	19	20	17	12	6	8	9	7	5	6	6	4
41-50 yoshgacha	29	25	19	16	14	8	6	7	6	6	4	4	3
51-60 yoshgacha	33	15	22	7	15	11	5	5	4	6	5	6	1
60 yoshdan katta	30	11	39	16	7	7	11	9	7	7	7	2	2

- bu yosh guruhi muayyan turdagi xarajatlarni amalga oshirganlar ulushi **yuqoriligi**;
- **o'rta darajada** shakllangani;
- **past darajada** ekanligini ko'rsatadi.

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Kredit va qarz olish bilan bog'liq xatti-harakatlarda biroz ehtiyotkorlik kuzatilmoqda. Jumladan, so'nggi ikki chorakda kuzatilgan kredit olish kayfiyati pasayishi davom etdi. Respondentlarning 16 foizi kelgusi oylarda kreditga talabi kamayishini bildirdi (o'tgan chorakka nisbatan 2,4 foiz bandga oshgan). Kreditga bo'lgan talab aksariyat daromad guruhlarida kamaygan. Kredit olishni rejalashtirayotgan respondentlar asosan, uy-joy ta'miri, ta'lim, davolanish, to'y marosimlari va avtomobil xaridi uchun kredit mablag'laridan foydalanishni ko'rsatgan.

5-rasm. Jamg'armaning yetarlilik darajasi bo'yicha kutilmalari (ulushi, foizda)



Jamg'arishga bo'lgan moyillik oshdi. Bunda jamg'armaga ega bo'lmagan respondentlar ulushi 38 foizgacha kamaydi (o'tgan chorakka nisbatan 1,6 foiz bandga kamaygan). Jamg'armalar yetarliligi bo'yicha taqsimotga ko'ra, respondentlarning 33 foizi bir oygacha yetarli jamg'armaga ega ekanini, qariyb 16 foizi bir oydan uch oygacha yetarli jamg'armaga egaligini, 6–8 foiz atrofidagi respondentlar esa uch oydan olti oygacha yoki olti oydan ortiq muddatga yetarli jamg'armaga ega ekanini bildirgan.

Shaxsiy moliyaviy holat bo'yicha baholarda ham ijobiy o'zgarishlar qayd etilgan. O'tgan yilga nisbatan moliyaviy holati yaxshilanganini bildirgan respondentlar ulushi oshgan bo'lsa, moliyaviy holati yomonlashganini bildirganlar ulushi kamaygan.

Makroiqtisodiy kutilmalar, asosan, ijobiy bo'lib qolmoqda. Respondentlarning 67 foizi keyingi 12 oyda iqtisodiy o'sish tezlashishini va 77 foizi kelgusi uch yillik istiqbolda iqtisodiy holat yaxshilanishini ta'kidlashgan.

To'liq sharh bilan quyidagi [havola](#) orqali tanishishingiz mumkin.